

Sarishtali qiz – farishtali qiz**Muallif: Abdumo‘minova Dilafruz Alibek qizi**

Oqdaryo tuman hokimligi, Oila va xotin-qizlar bo‘limi Yangiqo‘rg‘on–

Yangiqishloq MFY xotin-qizlar faoli

Oqdaryo tumani maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi 3-sonli

Davlat maktabgacha ta’lim tashkiloti psixologi

Annotatsiya:

Maqolada qiz bolalarning sarishtalik, odob va saranjomlik kabi insoniy fazilatlarini shakllantirishning tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyati yoritilgan. Sarishtalik – bu nafaqat tozalik, balki insonning ichki dunyosi, madaniyati, mas’uliyati va jamiyatdagi o‘rnining ko‘zgusi ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so‘zlar:

sarishtalik, odob, qiz tarbiyasi, ma’naviyat, tozalik, mas’uliyat, oilaviy qadriyat, poklik, go‘zallik, tarbiya.

O‘zbekiston xalqining qadimiy an‘analarida qiz bolaning odobi, saranjom-sarishtaligi, mehribonligi va ibosi eng yuksak insoniy fazilatlar qatoriga kiradi. “Sarishtali qiz – farishtali qiz” degan xalq naqli bejiz aytilmagan. Zero, sarishtalik bu nafaqat tashqi tozalik, balki ichki dunyo pokligi, tartib-intizomga, mehnatsevarlikka, mas’uliyatga bo‘lgan munosabatni ifodalaydi. Qiz bolaning sarishtaligi uning kelajakdagi hayotida – oila, farzand, jamiyat oldidagi burchlarini to‘g‘ri bajarishida muhim poydevor bo‘ladi. Sarishtalik – bu hayot tarzi, o‘zini va atrofdagilarni hurmat qilish, ishni joyida bajarish, vaqtni qadrlash demakdir. Bugungi kunda yosh avlod, xususan, qizlar orasida sarishtalikni, odobni, saranjomlikni singdirish tarbiyaning eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Chunki tartibli, e’tiborli va mehnatkash qiz har qanday sharoitda o‘z o‘rnini topa oladi, o‘z hayotini to‘g‘ri yo‘lga qo‘yadi. Qiz bola oilaning nafisligi, go‘zalligi va mehr manbai hisoblanadi. Shu boisdan u o‘zida go‘zallik bilan birga saranjomlik, poklik, hushmuomalalik kabi fazilatlarni mujassam etishi kerak. Sarishtalik – bu inson ichki madaniyatining ko‘zgusidir. Uyda tartib, kiyimda ozoda, so‘zda muloyim, yurishda xushxulq bo‘lgan qiz o‘z atrofidagilarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Aksincha, beparvo, tartibsiz, e’tiborsiz yurish insonning ichki dunyosidagi tartibsizlikni ham ifodalaydi. Shuning uchun ota-onalar, tarbiyachilar va pedagoglar yoshligidan qizlarga sarishtalikni o‘rgatishlari zarur. Har bir ona o‘z qiziga faqat tikish-bichishni emas, balki o‘z vaqtini to‘g‘ri taqsimlashni, ishni oxirigacha yetkazishni, o‘zini tutishni o‘rgatishi lozim. Chunki qiz bola bir kuni ayol, ona, turmush o‘rtoq sifatida oila boshqaruvchisi, tarbiya beruvchi shaxsga aylanadi. U qanday tarbiyalangan bo‘lsa, uning oilasi ham shunday muhitda yashaydi. Sarishtalik – bu faqatgina tozalik emas, balki mas’uliyat va vijdon ifodasidir. Agar inson o‘z ishini vijdonan bajarsa, bu

uning sarishtaligini ko'rsatadi. Bugungi zamonaviy jamiyatda qizlarga sarishtalikni o'rgatish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot oqimi kuchli, texnologiyalar taraqqiy etgan davrda ba'zi yoshlar tashqi ko'rinishga, modaga haddan ortiq e'tibor berib, ichki madaniyatni, tartib va odobni orqaga surib qo'yimoqda. Aslida esa haqiqiy go'zallik – bu ichki poklikda, ozodalikka, halollikka, shijoatga intilishda namoyon bo'ladi. Sarishtali qiz nafaqat o'zini, balki atrofini, o'z muhitini, jamiyatni go'zal qiladi. U ish joyida mas'uliyatli, oilada mehribon, do'stlar orasida ishonchli bo'ladi. Shunday qizlar yurtning bezagi, millatning or-nomusidir. Ota-onaning farzandga beradigan eng katta sovg'asi – bu sarishtalik va odobni o'rgatishdir. Oiladagi muhit, onaning o'rnak bo'lishi bu borada eng katta tarbiyaviy kuchdir. Ona ozoda bo'lsa, uy toza, bolalar ham saranjom bo'ladi. Shuning uchun ayol shaxsining o'rni nafaqat o'z oilasida, balki butun jamiyatda beqiyosdir. “Sarishtali qiz – farishtali qiz” degan so'z aslida shunchaki maqol emas, bu hayotiy haqiqatdir. Chunki sarishtalik farishtalikning belgisi – ya'ni ruhiy poklik, halollik va tinchlik timsolidir. Har bir qiz bola o'z yurish-turishida, so'zida, kiyinishida, odobida bu farishtalikni namoyon etadi. O'zini qadrlaydigan, o'z mehnatini hurmat qiladigan qiz hayotda muvaffaqiyatli bo'ladi, o'zining orzu-intilishlariga erishadi. U boshqalarga ham o'rnak bo'lib, jamiyatda ijobiy muhit yaratadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida, maktablarda, kollej va universitetlarda qizlarga sarishtalik, odob, go'zallik va saranjomlikni o'rgatish uchun alohida e'tibor berilishi zarur. Tarbiyaviy mashg'ulotlar, milliy qadriyatlar asosida darslar, ona-qiz suhbatlari orqali qizlarning ichki madaniyatini yuksaltirish kerak. Har bir yosh qiz o'zini nafaqat tashqi go'zalligi, balki ichki dunyosining tozaligi bilan bezatishi kerakligini anglashga yetishi lozim. Prezidentimiz aytganlaridek, “Ayol – oila va jamiyat tayanchi, millatning yuzidir.” Demak, bu so'z har bir qizning zimmasiga mas'uliyat yuklaydi. Qizlar sarishtali bo'lsa, oilalar totuv, jamiyat esa farovon bo'ladi. Sarishtalik orqali nafaqat oila, balki butun xalqning madaniy darajasi yuksaladi. Yurtimizda ayollarga berilayotgan e'tibor, ularning ta'lim olishi, kasb-hunar egallashi, o'z salohiyatini namoyon etish imkoniyatlari bu borada katta turtki bo'lmoqda. Shu bilan birga, sarishtalik, ibo, odob kabi qadriyatlar har qizning hayot mezoniga aylanishi kerak. Chunki sarishtali qiz qayerda bo'lmasin, farishtadek ezgulik tarqatadi, mehr va totuvlik manbai bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimova V. “Qiz bola tarbiyasi – millat kelajagi” – Toshkent, 2020.
2. Mamatqulova Z. “Odob va saranjomlik saboqlari” – Samarqand, 2021.
3. Jo'raeva D. “Oila va ayol psixologiyasi” – Toshkent, 2022.
4. O'zbekiston Respublikasi “Oila kodeksi”.
5. www.pedagog.uz
6. www.ziynet.uz

